

**BOLALARNI IJTIMOIIY AXLOQIY TARBIYALASHDA MTT
VA OILA HAMKORLIGI ISH SHAKLLARI**

Raximova Dildora Mansurbek qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti magistr talabasi

e.mail: draximova350@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'lim tizimida har tomonlama yetuk, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda va ularning turli xil qobiliyatlari va ko'nikmalarini shakllantirishda maktabgacha ta'lim tashkilotining oila bilan hamkorlikdagi ishlarining o'rni atroflicha yoritilgan.

Kalit so'zlar: ta'limda dolzarb islohotlar, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, ta'lim, tarbiya, maktabgacha ta'lim tashkiloti, oila, hamkorlik.

Аннотация. В данной статье подробно рассматривается роль дошкольных образовательных учреждений в сотрудничестве с семьями в подготовке всесторонне развитых, конкурентоспособных специалистов и в формировании их различных способностей и навыков.

Ключевые слова: актуальные реформы в образовании, информационно-коммуникационные технологии, образование, воспитание, учреждение дошкольного образования, семья, сотрудничество.

Annotation. This article thoroughly discusses the role of preschool education organizations in collaboration with families in preparing well-rounded, competitive specialists and in developing their diverse abilities and skills.

Key words: current reforms in education, information and communication technologies, education, upbringing, preschool education institution, family, collaboration.

“Bola dunyoga kelganidan boshlab, unda aynan maktabgacha yosh davrida aqliy faollik oshadi, axloqiy-estetik va jismoniy xislatlar shakllanadi. Shu bois ham kelgusi yillarda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish borasidagi strategik



maqsadimiz-ijtimoiy ahvolidan qat'iy nazar, bog'cha yoshidagi har bir bolani ushbu ta'lim yo'nalishi bilan to'liq qamrab olish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat..."¹.

Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarning zamonaviy ta'lim olishi, ularning har tomonlama yetuk, talab doirasida individual bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, egallagan bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishi va jamiyatda o'z shaxsini rivojlantirishi uchun ta'lim tizimida dolzarb islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa ta'lim tizimining tub bosqichidan boshlab har bir bo'g'inida zamon talablari asosida yangi binolarning barpo etilishi, ta'lim jarayoni zamonaviy axborot kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlanganligi, yuksak salohiyatli, bilimli pedagoglarning jalb qilinganligi bunda yaqqol misol bo'la oladi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda pedagog tarbiyachilar bilim salohiyatini yanada oshirish va ularni pedagogik jarayonga har tomonlama yetuk kadr sifatida tayyorlash borasida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Ammo maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bugunga qadar hali yechimini kutayotgan kamchiliklar, bartaraf etish lozim bo'lgan jihatlar ham yo'q emas. Fikrimizning isboti sifatida 2019-yil 8-mayda PQ-4312-son qaroriga ko'ra qabul qilingan "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" 2-bobida ta'lim tizimini rivojlantirishdagi mavjud bir qator muammolar sirasida "ota-onalarning bola shaxsining shakllanishida maktabgacha ta'limning ijobiy jihatlari va foydasi haqida yetarlicha ma'lumotga ega emasligi"² keltirib o'tilgan. Bundan tashqari davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarga ta'lim va tarbiya berish, maktab ta'limiga tayyorlash masalalarida tarbiyachilarning kasbiy malakalarining yetishmaslik holatlari uchrab turibdi. Shu kabi salbiy holatlarni bartaraf etishning eng samarali yo'llaridan biri maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila bilan muntazam hamkorlikni yo'lga qo'yish, yosh ota-onalarga metodik tavsiyalar berib borish,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi 29-dekabr 2020-yil

² 2019-yil 8-mayda PQ-4312-son "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"



ota-onalar ishtirokidagi mashg'ulotlar, bayram tadbirlari, seminarlar, konferensiyalar, davra suhbatlari olib borish maqsadga muvofiqdir.

“Islomda bolalar tarbiyasi ota-onaning eng mas’uliyatli va uzoq davom etadigan burchlaridir. Boshqa burchlar ba’zi ishlarni qilish yoki mulkni sarflash bilan oxiriga yetadi. Ammo tarbiya mas’uliyati bardavom bo’ladi. Zotan ota-onaning farzand ne’matiga haqiqiy shukrlari ham aynan tarbiya mas’uliyatini sharaf bilan ado etish orqali yuzaga chiqadi”³

Demak, bola tarbiyasiga ota-onaning o’rni juda katta ta’sir o’tkazadi.

Tarbiyaning eng muhim vositalaridan biri shaxsiy namunadir. Xalqimizda “qush uyasida ko’rganini qiladi”, degan naql bejizga aytilmagan. Oilada amalga oshiriladigan ijtimoiylashuv jarayoni, yoshi kattalarning o’zaro munosabatlarni namoyon qilishlari, natijada shaxs ijtimoiy me’yorlar va qadriyatlarni o’zlashtirib, ijtimoiy hayotga kirib borishidir.⁴ Yuqoridagi fikrlardan shu ayon bo’ladiki, bolalarning ta’lim va tarbiya jarayoni uning yashash muhiti va ta’lim oladigan tashkiloti bilan uzviy bog’liq. Maktabgacha ta’lim tashkilotining ota-onalar bilan ishlashining jamoa tarzida va yakkama-yakka holda ishlash shakllarini mohirlik bilan qo’shib olib borish, keng aholi o’rtasida pedagogik tashviqot ishlarini tashkil etish tufayli bolalarni tarbiyalashda ijobiy natijalarga erishish mumkin.

MTT xodimlari oila bilan hamkorlikdagi ishlarining eng keng tarqalgan shakllari:

Ota-onalar bilan yakka tartibda ishlash;

Ota-onalar bilan jamoa tarzida tashkil qilinadigan ishlar;

Ko’rgazmali ishlar;

Ota-onalarga pedagogik bilim berish.⁵

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari va oila yuqoridagi shakllar orqali hamkorlikni yo’lga qo’yishi, bola tarbiyasini yaxlit tizim sifatida olib borishi

³ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf “Baxtiyor oila”. HILOL nashr T.: 2022.355 bet

⁴ Z.S.Teshabayeva “Bolalarning ijtimoiy moslashuvi”. Darslik.-T.: “Sarbon LLS”, 2024. 152 bet

⁵



lozim. Tarbiyachi pedagog oila bilan hamkorlikni rivojlantirar ekan, ko‘zlangan maqsadga erishish ancha tez amalga oshadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta’lim tashkiloti va oila hamkorligini tizimli yo‘lga qo‘yish, ikki tomonlama kelishgan holda bolalarga ta’lim va tarbiya berish ularning qobiliyatlarini shakllantirish va jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga ko‘maklashishning eng samarali yo‘lidir. Shu sababdan tarbiyachi pedagog bevosita va uzluksiz oila bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi, bolaning yutuq va kamchiliklarini uning ota-onasi bilan tahlil qilib rag‘batlantirishi va bartaraf etishi maqsadga muvofiqdir. Chunki tomonlarning tarbiya jarayoniga e’tiborsizligi bolaning xulq-atvori, o‘zini tutishi va hayot tarzida jiddiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi 29-dekabr 2020-yil

1. “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” 2019-yil.8-may. PQ 4312-son
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Baxtiyor oila”. HILOL nashr T.: 2022.355 bet
3. Z.S.Teshabayeva “Bolalarning ijtimoiy moslashuvi”. Darslik.-T.: “Sarbon LLS”, 2024. 152 bet
5. Тешабаева, З. С. (2020). БЎЛАЖАК ТАРБИЯЧИЛАРДА КАСБИЙ МОТИВАЦИЯНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МАЗМУНИ. Academic research in educational sciences, (3), 557-562.